Navoiy bo`limi qoshidagi Idoralararo ilmiy-texnikaviy kengashning navbatdagi yig‘ilishi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi qoshidagi Idoralararo ilmiy-texnikaviy kengashning 2018 yilgi tasdiqlangan Ish rejasiga muvofiq 10 iyul kuni O‘zR FA Prezidiumi zalida ushbu kengashning kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zR FA vitse-prezidentlari, bosh ilmiy kotibi, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari ishtirok etishdi. Yig‘ilishda “Navoiy KMK” Davlat korxonasi va “Navoiyazot” AJda mavjud muammolar hamda ularning yechimlari, shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi uchun qilinishi kerak bo‘lgan ishlar muhokama qilindi.